

TERMINOLOGIK BAZADA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR (o‘zbek tili bojxona terminlari bazasi misolida)

Berdiyeva Gulmira Xamro qizi

Termiz davlat universiteti

Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi magistranti

+998939480426/gulikhamro@gmail.com

Bugungi kunda ilm-fan texnologiyalari jadal rivojlanib bormoqda. Bu esa barcha sohalar, shuningdek, tillarni ham rivojlanib, zamonaviy texnologiyalarga moslashishi, internet tiliga aylanishiga olib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida tillarning yashab qolishi uchun kurashi alohida o‘rin tutadi. Ushbu yo‘nalishda bir qator til korpuslari tuzilayotgani bejiz emas. Buning uchun esa albatta terminlar bazasiga ehtiyoj sezamiz.

Har bir termin o‘ziga xos ma’no va funksiyaga ega bo‘lib, u sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Terminlar ko‘pincha maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan ishlatiladi, shuning uchun ularning aniq va to‘g‘ri ishlatilishi juda muhimdir. Terminologiyaning leksik tarkibi bir qancha xususiyatlarga ega. Birinchidan, terminlar ko‘pincha qisqa va aniq bo‘ladi. Ular ko‘pincha bir yoki bir necha so‘zdan iborat bo‘lib, murakkab tushunchalarni ifodalash uchun mo‘ljallangan. Ikkinchidan, terminologiya doimo o‘zgarib turadi. Yangi ilmiy kashfiyotlar, texnologiyalar va ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida yangi terminlar paydo bo‘ladi, eski terminlar esa o‘z ma’nolarini yo‘qotishi yoki o‘zgarishi mumkin. Bu jarayon terminologiyaning dinamik xususiyatini ko‘rsatadi. Terminologiyaning leksik tarkibida sinonimlar va antonimlar ham muhim rol o‘ynaydi. Sinonimlar —bu bir xil yoki o‘xshash ma’noga ega bo‘lgan terminlar bo‘lib, ularning o‘zaro almashinuvi terminologik tizimning boyligini oshiradi. Antonimlar esa bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan terminlardir va bu orqali terminologiyaning ma'nolari yanada kengayadi. Shuningdek, terminologiyada omonimlar ham uchraydi, ya’ni bir xil shakldagi, lekin turli ma’nolarga ega bo‘lgan terminlar. Bu holat terminologik tizimda noaniqlik va chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Terminologiyaning leksik tarkibi, shuningdek, uning strukturasi ham bog‘liq. Terminlar odatda ma'lum bir tuzilishga ega bo‘lib, ular so‘zning ma’nosini aniqlashda yordam beradi. Masalan, ko‘plab terminlar prefiks

va suffikslar orqali shakllanadi. Bu esa ularning ma'nosini kengaytiradi va yangi terminlar yaratishga imkon beradi. Terminologik tizimlar ko'pincha ierarxik tuzilishga ega bo'lib, bu esa ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Yuqori darajadagi terminlar kengroq ma'noga ega bo'lib, past darajadagi terminlar esa aniqroq va maxsus ma'nolarga ega bo'ladi[1:873]. Terminlar monosemantik xarakterga ega, lekin bu qat'iy emas, chunki bunday qoidaning buzilish hollari ham uchraydi. Umumxalq tilidagi so'zlarning ma'nosini maxsuslashtirish orqali hosil qilingan terminlarda bunday holni kuzatish mumkin. Shuningdek, terminlar etimologiyasida sinekdoxa va metonimiya hodisalarini kuzatish mumkin. Lekin terminologik leksika ko'p ma'nolilikning barcha ko'rinishlarini qabul qilmaydi, hamda terminlar bir ma'noli bo'lishi shart[2:71]. Terminlar umumadabiy so'zlardan tubdan farqlanuvchi leksik qatlamni o'zida mujassam etadi. Ushbu farq quyidagi asosiy xususiyatlarda aksini topadi:

- semiotik (terminlarda belgi va ifodalovchi o'zaro simmetrik munosabatga kirishadi);

- vazifaviy (terminlar nafaqat nominativ, balki definitiv funksiyaga egaligi bilan ham xarakterlanadi);

- semantik (terminlar faqat maxsus tushunchalarni ifodalaydi, ularning har biri o'z ma'nosiga ko'ra unikaldir);

- tarqalish, ommalashish (faqat fan tiliga oid terminlar muayyan qismining umum

-abadiy tilga kirishi ularning boshqa sistemega xosligiga to'sqinlik qilmaydi);

- shakllanish yo'llari va vositalari (terminologiyada umumabadiy til so'z yasalishi vositalarining harakati maxsuslashgan, standart, turg'un modellarni ishlab chiqishga bo'ysunadi)[3:955]. N.Mahmudov lingvistik adabiyotlarda barcha fanlardagi terminlarga qo'yiladigan talablar, terminlarning zaruriy belgilari ko'rsatib o'tilishini ta'kidlaydi. Prof. Mukarramov ularni quyidagicha umumlashtirgan:

1) termin bir ma'noli yoki bir ma'noli tendensiyaga ega;

2) termin aniq, nominativ funksiyaga ega bo'lib, unga emotsionallik, ekspressivlik, modallik funksiyalari xos emas. Termin o'zining bu xususiyatini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi;

3) terminning ma'nosi tushunchaga tengdir;

4) termin stilistik jihatdan neytraldir;

5) terminologik leksika alohida sistemadir;

6) termin funksiyadir... Termin bilan oddiy soʻz oʻrtasidagi munosabat ana shu belgiga koʻra farq qilishi lingvistik adabiyotlarning deyarli barchasida qayd etiladi.

Terminlarning ixcham, aniq, bir maʼnoli, bir shaklda boʻlishi lozimligi haqidagi talablarning muhimligi bugungi kun tadqiqotchilari tomonidan ham muntazam taʼkidlanadi. Aksar tadqiqotchilarning fikricha, fan tili hamisha belgi (termin) va maʼno oʻrtasidagi nisbatan qatʼiy aloqaning barqarorligiga intiladi[4:11]. V.Tatarinovda: “Texnik til terminologiyada sinonim (variant) dubletdan uzoqroq ekanligini, lekin fikr mavzusiga yangicha qarashni aniqlashning faol lingvistik vositasi ekanligini tasdiqlaydi. Koʻp nominativ til vositalari yordamida aqliy tuzilmalarning oʻzgaruvchanligi amalga oshadi, shuning uchun sinonimiya-rivojlanayotgan fanning belgisidir. Ilm -fanning rivojlanish darajasi qanchalik baland boʻlsa, mutaxassisning tafakkuri shunchalik sinonimdir” Buni shu bilan izohlash mumkinki, agar terminologik tizim uchun sinonimlar yoki omonimlarning mavjudligi qanchalik maqsadga muvofiq degan savol tugʻilsa, antonimiyaga shubha yoʻq. Biroq, leksemalarning terminologik ishlatilishi enantiosemiya hodisasini eslatuvchi effektni, yaʼni bitta soʻz ichida antonimik maʼnolarning rivojlanishini keltirib chiqarishi mumkin[5:850].

Iqtisodiy soha terminlarning shakllanishida savdo-sotiqning yoyilishi va rivojlanishi katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu leksikonlarning isteʼmolga kirib kelishida bir qator tadqiqotlar olib borilgan boʻlib, iqtisodiy terminlar haqidagi dastlabki maʼlumotlar musulmon dunyosida taniqli islom olimi Abu Yusuf Yaʼqub ibn Ibrohim al-Ansoriyning “Kitab al-Kharaj” (“Soliq kitobi”) boʻlib, bunda xiroj, zakot, maks kabi soliq turlari haqida maʼlumot beradi. Xususan, “maks” (مكس) – oʻlpon degan maʼnoni bildirib, “Bibliya”da topilgan, ammo bu atama “Qurʼon”da uchramaydi. Musulmon adabiyotida bojxona toʻlovlar, yoʻl haqi va shunga oʻxshash bojlarni belgilash uchun ishlatiladi. Musulmonlar bu soliq turidan nafratlangan va bu davrga kelib ushbu soliq turini olmaslik hukm qilingan. Al-maks uchun asarning bir bobi bagʻishlangan[6:293]. Ilmiy jihatdan ushbu soha terminlarining oʻrganilishida esa Hamidulla Dadaboyevning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy soha leksikasining taraqqiyotiga doir tadqiqotlari oʻrinlidir. L.Z. Budagov, V.V. Radlovning ilmiy izlanishlarida ham zakot terminining derivasion-etimologik jihatlari atroflicha oʻrganilgan. Arab xalifaligining dastlabki yillarida zakot faqat musulmon davlatlarida joriy etilganligi, islom anʼanalariga koʻra, maʼlum boylikka ega boʻlgan musulmon

kishilar ko‘chmas-mulk, savdo-sotiq va chorva mollarining qirqdan bir miqdorida zakot berganligi qayd etilgan. Bojxona terminologiyasiga doir ilmiy izlanishlarning keyingi bosqichida rus tilshunosligida E.A.Fedorchenkoning “Rus tilida bojxona ishining terminologik lug‘atini shakllantirish va rivojlantirish” mavzusidagi mualliflik dissertatsiyasi, o‘zbek tilshunosligida esa O. S. Ahmedovning “Soliq va bojxona terminlarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga berilishi” nomli va “Ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari” mavzusidagi mualliflik dissertatsiyalarida soliq-bojxona terminlari nafaqat iqtisodiyot kategoriyasi xususiyatlari nuqtayi nazaridan, lisoniy tarjimashunoslik tabiati jihatidan ham milliy til bilan qiyoslab o‘rganish ilgari surildi.[7:91,92]

Terminologik bazada terminlar uchun quyidagi talablarni qo‘yilishi kerak:

-termin sinonimlarini aniqlash va bazada aks ettirish(bunda terminning diaxron va sheva variantlarini ham jamlab, bir nuqtada jamlash va joylashtirish darkor);

-terminning boshqa sohalardagi akslanishi va ifoda xususiyatlarini ochib berish(agar zarur bo‘lsa);

-termin izohini ochib berishda uning morfologik xususiyatlarini aks ettirish va so‘z turkumlarini berish;

-terminologik leksema xususiyatlarini umumiy kontekstda ochib berish.

Bu kabi prinsiplar o‘zbek tilida terminologik baza tuzishda asos bo‘ladi va bu kabi uslublardan birini foydalanish tilshunos-tadqiqotchining o‘ziga bog‘liq.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek tili terminologik bazasida termin va uning izohigina aks etmasdan uning leksik-semantik(sinonim, omonim, antonim, xalonim, meronim, gipo-giperonim) jihatlariga ham e‘tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Jumyazova. Terminologiyaning leksik tarkibi xususiyatlari. “Tarjimashunoslik: muammolar yechimlar va istiqbollar II” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2024-yil 24-noyabr <http://www.uzswlu.uz>

2. Sh. Xashimov. Terminologiya haqida umumiy tushuncha va uning leksikografiyada tutgan o‘rni. RESEARCH FOCUS | VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2023 ISSN: 2181-3833 ResearchBip (14) | Google Scholar | SJIF (5.708) | UIF (8.3)

3. Sh.Musurmanova. Harbiy terminologiyani tarjima qilishning leksik, semantik, grammatik jihati. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022.№ 3.
4. G'.Qudratov. Turistik terminlarning leksik-semantik xususiyatlari va leksikografik tahlili. of Innovation, Creativity and Art.Vol.2,No.4,2022.ISSN:2181-4287.
- 5.N. G'afforov. Terminlarning o'ziga xos xususiyatlari. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022 ISSN 2181-063X
6. G.Berdiyeva. Jahon bojxona ishida terminlarning o'rganilishi. SYNAPSES: Insights Across the Disciplines Volume 1, Issue 5 IF(Impact Factor) 10.92 / 2024
7. G.Berdiyeva. Bojxona ishida terminlarning o'rganilishi. Acumen: International Journal of Multidisciplinary Research Volume 1, Issue 4.